

Universitet Yoshlar ittifoqi Boshlang'ich tashkilotining tashrifi "Abdulla Oripov izdoshlari" ijodiy kecha

2022 - yil 30 - may sanasida "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Yoshlar ittifoqi Boshlang'ich tashkiloti tomonidan universitga biriktirilgan O'zbekiston qahramoni, madhiyamizdagi jilvador so'zlar egasi, buyuk adibimiz Abdulla Oripov hotirasini abadiylashtirish hamda uning bizga qoldirib ketgan merosini yod etish targ'ib qilish maqsadida Adiblar hiyobonida Abdulla Oripov haykali yonida ijodiy kecha uyushtirildi.



Tadbirda yoshlar kengashi a'zolari, fakultet yetakchilari hamda iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan birgalikda ijodiy kecha juda chiroyli va mazmunli o'tdi. Universitet Yoshlar yetakchisi Davronbek Rasulov so'zga chiqib kirish so'zi bilan ochib berdilar. Universitetimizdagi Abdulla Oripov nomidagi maxsus stipendiyasi sohibi QXM fakulteti talabasi, Marufbek Safarmatov o'zbek xalqining buyuk shoiri Abdulla Oripov hayoti va ijodini yanada chuqur o'rganishimiz, kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni olishimiz kerakligi haqida so'z yuritdi va shoirimizga bag'ishlangan she'rlarini o'qib eshittirdi.



Qolaversa GM fakulteti yetakchisi, Universitet radio eshittirish guruhi hamda "Suhondonlik" klubi sardori Sarvar Azimov , QXM fakulteti yetakchisi Javlonbek Xo'jamqulov, iqtidorli talabalardan Safina Suyunova, Bobur Baxtiyarov, Universitet "Zakovat" klubi sardori Dostonbek Xursandmurodov o'zining adib haqida fikr-mulohazalarini bildirib va shoir ijodidan namunalar o'qib berishdi. Talabalar bundan bahramand bo'lishdi va ma'naviy olamini boyitishdi.

Universitet Yoshlar yetakchisi: D.Rasulov

Universitet matbuot xizmati